KURASH SPORT TURINING XALQARO QOIDALARINI TALABALARGA PEDAGOGIK O‘RGATISH ZARURATI

Raximberdiev J.N.
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kurash qoidalari, pedagogik o‘rganish, tahlil qilish, yoshlar, vatan, milliy sport, milliy g‘urur, yurt kelajagi, tarbiya, sport musobaqalari, g‘olib.

Ключевые слова: правила борьбы, педагогическое обучение, анализ, молодежь, Родина, национальный спорт, национальная гордость, будущее страны, образование, спортивные соревнования, победитель.

Key words: wrestling rules, pedagogical study, analysis, youth, homeland, national sport, national pride, country’s future, education, sports competitions, winner.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qator islohotlar zamirida xalqning turmush tarzini yaxshilash, aholining barcha qatlamlarida ma’nan va jismonan sog‘lom muhitni yaratish, salomatlikni mustahkamlash g‘oyasi yotibdi. SHu bois ayni paytda jismoniy tarbiya va sportga e’tibor davlat ahamiyatiga molik muhim ijtimoiy-siyosiy vazifaga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi bilan bog‘liq mamlakat aholisining barcha qatlamlari, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shartsharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga ega bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, mardlik, Vatanparvarlik, ona yurtiga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasida iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, umuman, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligi quvonarli hol, albatta.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyovning 2017 yil 2 okyabrdagi “ Kurash” milliy sport turini

yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risidagi, 2020 yil 4 noyabrda PQ-4881 “Kurash Milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish choratadbirlari to‘g‘risi”da Qarorlari qabul qilindi. Qarorda “Kurash ” milliy sport turini yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks choratadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlash nazarda tutilgan.

SHundan kelib chiqib Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, Vatanparavarlik, gumanizm g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan milliy sportimiz bo‘lgan kurashni ommalashtirish, keng ko‘lamda targ‘ib qilish va rivojlantirish, dunyoga tanitish va ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. SHu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta’minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek sohada malakali kadrlar, murabbiylar va hakamlar tayyorlashga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Bugungi kunda yurt kelajagi bo‘lgan yoshlarni vatanparvar, mamlakat taraqqiyotiga dahldor, ijtimoiy mas’uliyatli qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. SHu jihatdan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, bu sohadagi muammolarni falsafiy, huquqiy, sotsiologik yondashuvlar orqali hal qilish, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash, ularning tafakkur tarzini takomillashtirish asosiy vazifalarimizdan biridir. Mazkur muammolarni bartaraf etishda jismoniy tarbiya va sportga tarbiya vositalaridan biri sifatida yondoshish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu omil, milliy g‘urur, Vatan uchun faxrlanmoq, or-nomus, yurt sha’ni kabi tuyg‘ular shakllanishining asosi sanaladi. Sport mashg‘ulotlari jarayonida g‘oyaviy tarbiyalash, o‘qish, mashq qilish, musobaqalarda ishtirok etish axloqiy me’yorlarga rioya qilish orqali amalga oshiriladi. O‘quv-sport mashqlarida, sport musobaqalarida sportchilar katta ruhiy va jismoniy zo‘riqishlarni boshidan kechiradilar. Bu zo‘riqishlar ularning irodasini mustahkamlaydi, dadillik, o‘zini qo‘lga olish, qat’iylik, o‘z kuchiga ishonch, chidamlilik va intizomga o‘rgatadi. Sport musobaqalarida g‘olib bo‘lish sport jamoasining har bir a’zosini o‘z qiziqishlarini jamoa manfaatlariga bo‘ysundiradi, jamoaning bir qismiga aylanib, unda o‘z o‘rnini topishga yo‘naltiradi. Umumiy maqsadni amalga oshirish, g‘alaba uchun jamoaning har bir a’zosi kuchlarini birlashtirib, muvofiqlashtirib, jon-jahdi bilan g‘alaba sari undaydi. G‘alabaga bo‘lgan

ishonch va intilish jarayoni kuchli sport jamoasini shakllantiradi va uning manfaatlariga sodiqlikni tarbiyalaydi.

Sport g‘alabasiga bo‘lgan kurash jarayonida shug‘ullanuvchilarda yaxshilik qilish, raqibni hurmat qilish, halollik, halol sport kurashini olib borish, to‘g‘rilik kabi ijobiy fazilatlarni vujudga keltiradi. Umuman olganda, jismoniy mashg‘ulotlar jarayoni shaxsni intizomlilik, halollik, haqgo‘ylik, o‘zaro hurmat, odamlarga qiyin va zarur sharoitda yordam berishga tayyor turish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va boshqa asosiy insoniy fazilatlar shakllanib borishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda yurt kelajagi bo‘lgan yoshlarni vatanparvar, mamlakat taraqqiyotiga dahldor, ijtimoiy mas’uliyatli qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. SHu jihatdan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, bu sohadagi muammolarni falsafiy, huquqiy, sotsiologik yondashuvlar orqali hal qilish, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash, ularning tafakkur tarzini takomillashtirish asosiy vazifalarimizdan biridir.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda jismoniy tarbiya va sportga tarbiya vositalaridan biri sifatida yondoshish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu omil, milliy g‘urur, Vatan uchun faxrlanmoq, or-nomus, yurt sha’ni kabi tuyg‘ular shakllanishining asosi sanaladi. Kurash mashg‘ulotlari jarayonida g‘oyaviy tarbiyalash, o‘qish, mashq qilish, musobaqalarda ishtirok etish axloqiy me’yorlarga rioya qilish orqali amalga oshiriladi. O‘quv-sport mashqlarida, sport musobaqalarida sportchilar katta ruhiy va jismoniy zo‘riqishlarni boshidan kechiradilar. Bu zo‘riqishlar ularning irodasini mustahkamlaydi, dadillik, o‘zini qo‘lga olish, qat’iylik, o‘z kuchiga ishonch, chidamlilik va intizomga o‘rgatadi. Kurash musobaqalarida g‘olib bo‘lish sport jamoasining har bir a’zosini o‘z qiziqishlarini jamoa manfaatlariga bo‘ysundiradi, jamoaning bir qismiga aylanib, unda o‘z o‘rnini topishga yo‘naltiradi. Umumiy maqsadni amalga oshirish, g‘alaba uchun jamoaning har bir a’zosi kuchlarini birlashtirib, muvofiqlashtirib, jon-jahdi bilan g‘alaba sari undaydi. G‘alabaga bo‘lgan ishonch va intilish jarayoni kuchli sport jamoasini shakllantiradi va uning manfaatlariga sodiqlikni tarbiyalaydi. Sport g‘alabasiga bo‘lgan kurash jarayonida shug‘ullanuvchilarda yaxshilik qilish, raqibni hurmat qilish, halollik, halol sport kurashini olib borish, to‘g‘rilik kabi ijobiy fazilatlarni vujudga keltiradi.

Umuman olganda, jismoniy mashg‘ulotlar jarayoni shaxsni intizomlilik, halollik, haqgo‘ylik, o‘zaro hurmat, odamlarga qiyin va zarur sharoitda

yordam berishga tayyor turish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va boshqa asosiy insoniy fazilatlar shakllanib borishiga xizmat qiladi. Kurash o‘zbek xalqi bilan birga tug‘ilib, u bilan birga yashab kelayotgan bo‘lsa, milliy istiqlol xalqimizning ana shu qadriyatini, ta’bir joiz bo‘lsa, ma’naviyat gavharini etti iqlimga ko‘z-ko‘z qildi.

Kurash o‘zbek milliy sporti sifatida dunyoga yuz tutdi va o‘zining jozibali usullari, mukammal tarbiyaviy axamiyatini isbotladi. Birok kurashni yanada rivojlantirish, uning falsafasini, tarixini, tarbiyaviy axamiyatlarini ilmiy jixatdan mukammal o‘rganish zaruratidan xoli emas. Kurashni Olimpiya o‘yinlari dasturidan o‘rin olishi maksadga muvofikdir. O‘zbekiston rahbariyati va sport jamiyati, kurash fidoiylari ushbu yo‘lda samarali harakat qilmokda. Ishonamizki kurash Olimpiya o‘yinlari dasturidan munosib o‘rin oladi. Umuminsoniy qadriyat sifatida tan olinadi.

Muhokama va natijalar.Bugungi kunda talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish maqsadida o‘z iqtidorini namoyon etishlari uchun imkoniyat yaratish, yoshlarning dunyoqarashi va fikrlash doirasini yanada kengaytirish, ularning barkamol shaxs bo‘lib, jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlari uchun barcha sharoitlar mavjud. Kurash o‘zbek xalqi bilan birga tug‘ilib, u bilan birga yashab kelayotgan bo‘lsa, milliy istiqlol xalqimizning ana shu qadriyatini, ta’bir joiz bo‘lsa, ma’naviyat gavharini etti iqlimga ko‘z-ko‘z qildi. Kurash uzbek milliy sporti sifatida dunyoga yuz tutdi va o‘zining jozibali usullari, mukammal tarbiyaviy axamiyatini isbotladi. Birok kurashni yanada rivojlantirish, uning falsafasini, tarixini, tarbiyaviy axamiyatlarini ilmiy jixatdan mukammal o‘rganish zaruratidan xoli emas.

Kurashni Olimpiya o‘yinlari dasturidan o‘rin olishi maksadga muvofikdir. O‘zbekiston rahbariyati va sport jamiyati, kurash fidoiylari ushbu yo‘lda samarali harakat qilmokda. Ishonamizki kurash Olimpiya o‘yinlari dasturidan munosib o‘rin oladi. Umuminsoniy qadriyat sifatida tan olinadi.

Xulosa. Bugungi kunda talaba yoshlarni jismonan sog‘lom, ma’nan kuchli, aqlan etuk, sog‘lom va barkamol bo‘lib etishishlari judayam muximdir. SHu bois, kurashning jahon maydonlarida, uning nufuzini oshirishda talabalarga insoniy fazilatlarini o‘rgatish biz pedagoglardan juda katta mehnat va talabni etibor qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4881 “Kurash Milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish choratadbirlari to‘g‘risi”da Qarori. 2020 yil 4 noyabr.

2. Yusupov K.T Kurash Xalqaro qoidalari, texnika va taktikasi.-T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashryoti, . 2005.-48-49 b.

3. Alimov K.A. Kurash falsafasi//YOsh avlodni tarbiyalashda kurashni urni va axamyati.xalqaro ilmiy anjuman materiyallari .-Termiz ,2011.-75-76 b.

4. Toshpo‘latov J. Kurash musobaqalarining bosh mezoni: halollik, poklik, adolatdir//Yosh avlodni tarbiyalashdakurashning o‘rni va ahamiyati.. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari:Termiz, 2011. 12-13 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kurash sportining xalqaro qoidalari mukammal darajada o‘rganilib chiqildi, insoniy fazilatlaring namoyon bo‘lishi, murabbiy-pedagoglarning qarashlari tahlil qilindi, Pedagogik talim – tarbiya jarayonida tutgan o‘rni haqida bayon qilindi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подробно изучены международные правила борьбы, проанализированы проявления человеческих качеств, мнения тренеров и педагогов, описана роль педагогической подготовки в процессе воспитания.

SUMMARY

In this article, the international rules of wrestling were thoroughly studied, the manifestation of human qualities, the opinions of coaches and educators were analyzed, and the role of pedagogical training in the process of education was described.